

SHE'R KISHI RUHINING SEROHANG SOZI.**A.T.Baltayeva***Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti*

Annotatsiya: *Maqolada Maqsud Shayxzoda she'riy olamining tamomila o'zgachaligi, unda ifodalangan poetik mazmun boshqa ijod namunalarida topilmasligi, shoir she'rlarining o'zigagina mansub qoidasi bilan tug'ilganligi va shunga ko'ra yashashi, she'rlarining jilosi, mazmundorligi, O'zbekistonga bo'lgan muhabbati, vatan, vatanparvarlik, ayniqsa, o'zbek eliga bo'lgan hurmati beqiyos tasvirlangan, shoir siymosini ko'z oldimizda gavdalantirib turadigan «Toshkentnoma» dostoni va yurakning navkarlari bo'lgan "Q'o'llar" she'ri haqida ayrim ko'ngil bitiklari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *she'riyat, meros, inson obrazi, inson falsafasi, vatan, vatanparvarlik, xotira.*

She'riyat paydo bo'libdiki, muhtaram zot bo'lgan inson obrazi, uning ruhiy kechinmalari, orzu intilishlari qalam ahli uchun eng mo'abar mavzu bo'lib kelgan. Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz surur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir she'rni o'qib xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz. Shoirlik o'sha tuyg'ularning tabiiyligi va haqqoniyligiga she'rxonni ishontira olishdir. Ishontira olish qobiliyati iste'dodning ibtidosidir. Mana shunday iste'dod sohiblaridan biri Maqsud Shayxzodadir. Maqsud Shayxzoda "Badiiy adabiyot bizning go'zal do'stimiz" maqolasida shunday degan edi: "...poeziya kishida nozik, ajib tuyg'ular uyg'otadi. Kishi ruhini hamma holatlari – quvonch, umid, sevgi, do'stlik, sog'inish, kutish, ayriliq, hasrat, qayg'u, ishonch, baxt...juda ko'p marotaba shoirlar tomonidan kuylangan mavzulardir...She'r kishi ruhining serohang sozi!". Ha, haqiqatdan ham G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Hamid Olimjon ovozlaridan Shayxzoda ijodi ancha farq qiladi. Ular bilan bir havodan nafas olib, bir burda nonni baham ko'rgan, lekin uning o'ziga yarasha sehri, jilosi va ziynati, tarovati butunlay o'zgacha! Shayxzodaning nazmida shoirning tanti tabiati, yosh boladek toza qalbiyu turk va ozarboyjon she'riyatiga xos mavjlar tovlanib-almashinib turadi, o'ziga xos ohanglar va his-tuyg'ularga boy ijodi «O'n she'r» , «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Yangi devon», «Jang va qo'shiq», «Ko'ngil deydi...», «O'n besh yilning daftari» , «Yurt she'rlari», «Yillar va yo'llar», «She'rlar» va boshqa she'riy to'plamlari va «Meros», «Tuproq va haq», «Ovchi qissasi», «Iskandar Zulqarnayn», «O'n birlar», «Ahmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o'g'il», «Nurmat otaning tushi» singari liro-epik asarlari bilan o'zbek she'riyatining yanada yuksak darajaga erishishiga ulkan hissa qo'shdi. Jaloliddin Manguberdi», «Mirzo Ulug'bek» tragediyalari, bir qancha ilmiy maqolalar, monografiyalar («Genial shoir») muallifi, U. SH. Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she'rlari, «Mis chavandoz» dostoni, «Motsart va Sal'eri» tragediyasi, M.Yu.

Lermontovning she'rlari va «Kavkaz asiri» dostonini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'zbek adabiyotining tarjima maktabini yanada boyitdi.

Shayxzodaning dastlabki she'rlari turk she'riyati ta'sirida yaratilgan. U Toshkentga kelganidan keyin ham o'ziga tanish uslubda she'rlar yoza boshladi. O'zbek she'riyatida qofiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, uni yangi vazn va shakl ko'rinishlarini olib kirdi. Shoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, uning «Toshkentnoma» lirik dostonida o'z ifodasini topgan. Shayxzoda avvalo shoir, uning ijod gultoji ham she'riyatdir.

Eh-hey, mening shahrimning ko'hna qissasin,

Qissasinki, ming yillar qa'riga cho'mgan,

Er qatlarida qotgan sir-hodisasin.

Hodisaki, vaqt uni tuproqqa ko'mgan,—

Kimlar ayta oladi? Bormi guvohlar?

Axir, ming yil yashamas qushlar, giyohlar!

Tushdi ne-ne zahmatlar bu er, bu elga.

Balki toshlar aytardi, kirsaydi tilga!

Shayxzodaning «Toshkentnoma» dostonini o'qir ekanman, har bir satrida shoirning qalb qo'ri, o'zbek diyoriga bo'lgan hurmati jilolanib turganini his qilaman va shoir siymosi ko'z oldimda gavdalanadi. Shoir «Toshkentnoma» dostonida o'zbek diyoriga bo'lgan butun hurmatini ochiqchasiga oshkor etadi. Maqsud Shayxzoda o'zbek adibi Asqad Muxtorga yozgan bir maktubida, bu haqda to'xtalib, shunday iliq satrlarni bitgan ekan: "Men bu o'lkaga, uning odamlariga o'la-o'lguncha qarzdorman. Bordi-yu, bir mo'jiza yuz berib, bir emas, to'rt umr yashasam, to'rtovini ham shu ona yurtimiga bag'ishlab, kecha-kunduz madhini aytardim va shunda ham uning menga bag'ishlagan sahiy mehri uchun qarzimni mingdan birini ham uzolmagan bo'lardim. Men bu erda olamni tanidim, hayotni, insonni, she'riyatni sevdim..." Hattoki, quyidagi misralarga e'tibor bersak, Toshkentni o'z shahrim deb ataydi, qo'hna shahrimning necha ming yillik tarixi, qissasi borki, buni qani kim ayta oladi? Navqiron Toshkent baribir qaddini buyuk tutib ming yillar qa'ridan mag'rur gullab-yashnab kelmoqda.

Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab

Qilarkan ta'rifin, sen bir oz to'xtab,

«Shunchalar bormikan?» deb gumon qilding,

«Ko'rganda aytamiz!» deb imo qilding.

Va aytding – darvoqe ko'rgandan keyin:

«Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!»

Qomatga munosib bo'lsin deb libos,

Ayniqsa quyidagi misralarni o'qigan har bir kitobxon Toshkentday azmda tug'ilganidan, yashaganidan mag'rurlanadi va shoir qalamining sehriga qoyil qolmasdan iloji yo'q.

— Nimasi ko'p Toshkentning?

— Suvi, soyi, soyasi...

— Toshkentga ixlosmandning

— Tugamas hikoyasi!..

- Nimalar ko‘p Toshkentda?
- Oshlar, ishlar, kishilar.
- Sozanda-yu pazanda,
- Ishchilar, ishboshilar.
- Nima ko‘rding Toshkentda?
- Mevalarning aslini,
- Doim quyosh faslini,
- Quyosh bunda izzatda

«Shoir bu satrlarni xuddi Toshkentning – o‘zbekning o‘z bolasiday faxrlanib yozganligining guvohi bo‘lamiz. Shoirning yana bir o‘qig‘uvchini chuqur o‘yga toldiradigan she‘ri bor. Bu “Qo‘llar” she‘ri. Ushbu she‘rni qayta mutolaa qilar ekanman, adib naqadar kishilar ruhiyatini yaxshi o‘rgangan, ularning fe‘l atvorlarini bilgan donishmand ekaniga yana bir bora amin bo‘ldim. Inson qo‘llari bilan yaratib, yana o‘sha qo‘llari bilan vayron qilishiga qodir zot ekanligini juda yorqin ifoda qilgan shoir mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q.

- Qo‘llar bor – muloyim, g‘oyat shafqatli,
- Qo‘llar bor – ayovsiz, yovuz, shiddatli.
- Qo‘llar bor – ishyoqmas, lapashang, tanbal,
- Qo‘llar bor – tezligi bilinar dangal.
- Qo‘llar bor – quyilar undan yaxshilik,
- Qo‘llar bor – tirnaydi, yovlik, vahshiylik

Xa, bu muloyim, g‘oyat shafqatli, ayovsiz, yovuz, shiddatli ishyoqmas, lapashang, tanbal, dangal, yaxshi, yovlik, vahshiy qo‘llar - yurakning navkarlaridir.

Xo‘sh, qo‘l-chi? Qo‘llar-chi?

Bu qo‘llar, qo‘llar,

Qo‘llarni qaysi bir ta‘rif ma‘qullar?

Daraxt belgilaydi ko‘lankasini,

Qo‘llar ham qo‘llaydi o‘z egasini,

Buyruqni bajarmoq qo‘l hunaridir,

Ha, qo‘llar – yurakning navkarlaridir.

“Qo‘llar o‘z egasini” qo‘llashini shoir hayotda ko‘p ko‘rdi va qo‘llarga mana shunday odilona baho bera oldi.

Biz diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, M. Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan yo‘g‘rilgan. Uning she‘riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan doim hamohang, chambarchas bog‘liq. Shoir sherlarida insonlarning dardi tashvishi, quvonch – shodliklarina emas, balki ulardagi falsafiy ijod namunalarini ham ko‘rsatib bera olgan. Uning ijodi naqadar teran ma‘no aks etishi natijasi o‘laroq ko‘pgina davlatlar adabiyotida yorqin yulduz sifatida hanuzgacha porlab kelmoqda. Bundan tashqari Maqsud Shayxzoda ijodi ikki xalq o‘rtasidagi uzilmas do‘stlik rishtalari vazifasini ham o‘tab kelmoqda. Shu bois ham biz adabiyot va san‘atni do‘stlik elchisi deya bekorga ta‘riflamaymiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Maqsud Shayxzoda haqiqiy tug‘ma ijodkor, uning ijodini o‘qir ekanmiz, har bir satri har safar yangi bir zavq- shavq, kishiga yashash ishtiyoqini, shukronalik tuyg‘ularini, sabr – toqatlilik xullasi kalom, o‘qig‘uvchining qalbini sehrlovchi kuch berishini qayta-qayta his qilamiz va shuni ayta olamizki, shoir she‘rlarining jilosi uning haqqoniyligida, o‘zbek xalqiga bo‘lgan mehr – muhabbatida, ishonchida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
GOSPODARKA I INNOWACJE Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch 2021/22
3. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maqsud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
6. Shayxzoda Maqsud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b.
7. [www.ziyuz.com]